NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-2]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Axrorova Umida Xamidullayevna
University of Business and Science dotsenti
Email: umiaxrorhamid@gmail.com

KORPORATIV OLIY TA'LIMNING MOHIYATI VA BOSHQARUV XUSUSIYATLARI: METODOLOGIK TAHLIL VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: *Maqolada korporativ oliy ta'limning ijtimoiy-falsafiy va boshqaruviy mohiyati tizimli-metodologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Uning inson kapitali nazariyasi, bilimlar iqtisodiyoti va institutsional transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, korporativ oliy ta'limning boshqaruv modeli, strategik integratsiya mexanizmlari, natijadorlik ko'rsatkichlari va sifat menejmenti tizimi ilmiy jihatdan asoslanadi. Muallif tomonidan korporativ oliy ta'limning adaptiv-strategik modeli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *korporativ oliy ta'lim, metodologiya, inson kapitali, institutsional yondashuv, strategik boshqaruv, adaptiv model, innovatsion rivojlanish.*

Ахророва Умида Хамидуллаевна
доцент University of Business and Science

СУЩНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫМ ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация: *В статье на основе системно-методологического подхода анализируется социально-философская и управленческая сущность корпоративного высшего образования. Раскрывается его органическая взаимосвязь с теорией человеческого капитала, экономикой знаний и процессами институциональной трансформации. Также научно обосновываются модель управления корпоративным высшим образованием, механизмы стратегической интеграции, показатели результативности и система менеджмента качества. Автором предлагается адаптивно-стратегическая модель корпоративного высшего образования.*

Ключевые слова: *корпоративное высшее образование, методология, человеческий капитал, институциональный подход, стратегическое управление, адаптивная модель, инновационное развитие.*

Axrorova Umida Xamidullayevna
Associate Professor, University of Business and Science

THE ESSENCE AND MANAGEMENT FEATURES OF CORPORATE HIGHER EDUCATION: METHODOLOGICAL ANALYSIS AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Abstract: *The article analyzes the socio-philosophical and managerial essence of corporate higher education based on a systemic and methodological approach. Its close interrelation with human capital theory, the knowledge economy, and institutional transformation processes is revealed. Furthermore, the management model of corporate higher education, mechanisms of strategic integration, performance indicators, and the quality management system are scientifically substantiated. The author proposes an adaptive-strategic model of corporate higher education.*

Keywords: *corporate higher education, methodology, human capital, institutional approach, strategic management, adaptive model, innovative development.*

Kirish

Dunyo oliy ta'lim muassasalarida korporativ boshqaruvni amalga oshirishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Boshqaruv tamoyillari, modellari va texnologiyalarini takomillashtirish, boshqaruv nazariyasi va amaliyot talablari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish imkoniyatlarini loyixalarini prognistik ijtimoiyiqtisodiy omillarini, korporativ boshqaruv samaradorligi, biznes modellar, zamonaviy menejment imkoniyatlarini kengaytirish, kollegial korporativ boshqarish ma'suliyatini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar ishlar olib borilmoqda. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari ko'p tuzilmali ta'lim tizimini va ta'lim xizmatlari bozorlarini

takomillashtirish, mehnat bozorning o‘zini-o‘zi tartibga solish talablariga javob beradigan raqobat muxit yaratishni loyixalash, universitet ichidagi boshqaruv tizimining imkoniyatlari va zaxiralarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamoalardagi munosabatlar, ta’lim tizimida inson komponentining o‘rni va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarning korporativ boshqarishga ta’siri, korporativ boqarish modellari va texnologiyalarni tamoillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibo berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘ngi yillarda “bilimlar jamiyati”ni shakllantirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, tashkilot menejerlari va ularning ta’sischilari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish sifatini oshirish, tashkilotning samarali ishlashini ta’minlashning meyoriy asoslar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ta’lim tizimidagi 4 ta ustuvor vazifani: birinchidan, universitet vasiylik kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish; ikkinchidan – o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirish, ishlab chiqarish bilan bog‘liqligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun sharoit yaratish; uchinchidan – oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish; to‘rtinchidan, o‘qituvchilar va talabalar uchun byurokratik qog‘ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin kamaytirish belgilab berdi deb ta’qidlandi [1]. Natijada oliy ta’lim muassasalarini korporativ boshqarish metodikasini imkoniyatlari ko‘payadi.

O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlarini aniqlash, oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning munosib ish o‘rinlari bilan bandligini ta’minlash muammolarini tadqiq etish, ta’lim xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga e’tibor tobora kuchayib bormoqda. Ta’lim xizmatlari sohasining rivojlanishi, muntazam o‘sib borayotgan yuqori malakali mutaxassislarga kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish ushbu xizmat turlari bozorida talabning oshishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlashtirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash va ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomilashtirish va samarali mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishidagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish kabi masalalar dolzarb bo‘lib hisoblanmoqda. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy determinanti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik inson kapitali salohiyati bilan belgilanadi [5]. Shu sababli korporativ oliy ta’lim nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruviy fenomen sifatida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili

Ta’limni boshqarish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha Sh.Tursunov, A.O.Ochilov, Ch.A.Abdunazarov, U.P.Xolmirzayev, M.N.Yernazarov, Sh.S.Muxamadjonov, M.A.Ikramov, S.S.Gulyamov, A.T.Shermuhamedov, M.M. Abduraxmonova, D.Sh. Sodikova, Sh. Xayitova, Sh.Z. Zokirov tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotchilar E.V.Romanov, A.E.Vorobiev, V.M.Murov, S.B.Aliev, D.V.Romanov, O.G.Maltsevalar ta'lim iqtisodiyoti muammolari va oliy ta'limning innovatsion rivojlanishi masalalarini tadqiq etishgan. M.A.Lukashenko,A.V.Morozov, G.A.Balyxin, A.O.Grudzinskiy, S.V.Ivanov, S.O.Kalendjyan, A.V.Khoroshilova, J.N.Zaitseva, V.I.Soldatkina, Yu.B.Rubina, L.G.Titareva, V.P.Tixomirova, oliy ta’lim amaliyotida biznes modellari va korporativ boshqaruv usullarini qo‘llash tomonidan tadqiq etilgan.

Ammo, ta’limga korporativ boshqaruvni joriy etish oliy ta’limda zamonaviy menejmentning yangi amaliyotlarini rivojlantirishga qaratilgan davlatning strategik maqsadlariga erishishning muhim elementi hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarning yetarli darajada o‘tkazilmagani va zamonaviy korporativ boshqaruv amaliyotlarini joriy etishning amaliy asoslari, samarali ma’muriy, akademik va moliyaviy boshqaruvning yo‘qligi belgilangan maqsadlarga erishishda muayyan to‘siq bo‘lmoqda. Aholining o'sish ko'rsatkichlari ko'lami va oliy o'quv yurtlari sonining bir necha barobar ortishi oliy ta'limda boshqaruv tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati masalasini ko'tarmoqda.

Korporativ oliy ta’lim an’anaviy universitet modelidan farqli ravishda ishlab chiqarish va boshqaruv ehtiyojlariga bevosita integratsiyalashgan ta’lim tizimidir [6]. Bu model bilimlar iqtisodiyoti sharoitida tashkilotning strategik rivojlanish instrumentiga aylanmoqda [7].

Metodologik asoslari

Mazkur tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirildi:

1. Tizimli yondashuv

Korporativ oliy ta’lim murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraladi. Uning tarkibiy elementlari (maqsad, mazmun, boshqaruv, natija) o‘zaro funksional bog‘liqlikda tahlil qilindi.

2. Institutsional yondashuv

Korporativ universitetlar iqtisodiy va ijtimoiy institut sifatida ko‘rib chiqilib, ularning mehnat bozori va ishlab chiqarish bilan aloqadorligi o‘rganildi [8].

3. Kompetensiyaviy yondashuv

Ta’lim natijasi sifatida bilim emas, balki kompetensiyalar ustuvorligi asoslandi [9].

4. Aksiologik yondashuv

Korporativ ta’limning qadriyatlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini shakllantirishdagi roli ochib berildi.

Korporativ oliy ta’limning falsafiy va ijtimoiy mohiyati. Korporativ oliy ta’lim inson kapitalini rivojlantirishning strategik mexanizmi sifatida quyidagi falsafiy asosga ega:

Pragmatik yo‘nalish – ta’lim amaliy natijaga yo‘naltiriladi.

Instrumental xarakter – bilimlar tashkilot maqsadlariga xizmat qiladi.

Integrativlik – ta’lim, innovatsiya va boshqaruv bir butun tizim sifatida amal qiladi.

Masalan, McDonald's va General Electric tajribasi korporativ ta’limning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi rolini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [10].

Korporativ oliy ta’limning ijtimoiy mohiyati tashkilot ichida professional identitet va korporativ madaniyatni shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy kapital va ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Korporativ oliy ta’limning boshqaruv modeli

Korporativ oliy ta’lim boshqaruvi quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat:

Strategik rejalashtirish – ta’lim dasturlari korporatsiya rivojlanish strategiyasiga integratsiyalashadi.

Natijadorlik monitoringi – KPI va ROI ko‘rsatkichlari asosida samaradorlik baholanadi [11].

Sifat menejmenti – ISO standartlari asosida ichki audit tizimi joriy etiladi.

Raqamli boshqaruv – LMS va analitik platformalar orqali boshqaruv jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Adaptiv boshqaruv – tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashuvchan qaror qabul qilish mexanizmi mavjud bo‘ladi.

Ilmiy yangilik

Korporativ oliy ta’limning ijtimoiy-falsafiy mohiyati inson kapitali va institutsional transformatsiya nazariyalari sintezi asosida yangi talqinda yoritildi.

Korporativ oliy ta’limning adaptiv-strategik boshqaruv modeli konseptual jihatdan ishlab chiqildi.

Korporativ ta’lim samaradorligini baholashning integrativ mezonlari (strategik moslik, kompetensiya o‘sishi, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion salohiyat) tizimlashtirildi.

Milliy ta’lim tizimiga moslashtirishning metodologik tamoyillari taklif etildi.

Amaliy ahamiyati

- korporativ universitetlar faoliyatini strategik rejalashtirishda;
- davlat-xususiy sheriklik asosida ta’lim loyihalarini ishlab chiqishda;
- rahbar-kadrlar malakasini oshirish dasturlarini modernizatsiyalashda;
- ta’lim sifati monitoringi va baholash tizimini takomillashtirishda
- qo‘llanishi mumkin.

Taklif etilgan adaptiv-strategik model O‘zbekiston sharoitida korporativ ta’limni institutsional rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Korporativ oliy ta’lim zamonaviy bilimlar iqtisodiyoti sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning strategik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mohiyati ta’lim va biznes integratsiyasida, boshqaruv xususiyatlari esa strategik moslik, natijadorlik va innovatsionlikda ifodalanadi.

Metodologik jihatdan korporativ oliy ta’limni tizimli, institutsional va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘rganish uning nazariy va amaliy samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Mirziyoyev Sh.M.ning 2021-yil 16-iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi.

2. Романов Е.В. Методология и теория инновационного развития высшего образования в России// Монография. НИЦ ИНФРА-М., 2019. - 302 с.;

3. Воробьев А. Е., В. М. Муров С. Б., Алиев, О.В. Ваккер. Тенденции инновационного развития высшего образования в XXI веке// Калининград: Изд-во ФГОУ ВПО «КГТУ», 2010. - 333 с

4. Балыхин Г.А. Актуальные вопросы социальноэкономического развития системы образования России. Экономика образования. 2004(3). С. 7-22;

5. Becker G. Human Capital. – Chicago, 1993.

6. Allen M. The Corporate University Handbook. – 2002.

7. Drucker P. Post-Capitalist Society. – 1993.
8. North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – 1990.
9. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход в образовании. – 2005.
10. Meister J. Corporate Universities. – 1998.
11. Phillips J. ROI in Training and Performance Improvement Programs. – 2003.